

Date: 27th July-2026

**TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA O'RGANILAYOTGAN OLTINSIMON
QORAG'ATNING YANGI HAMDA MAVJUD NAVINING SIFAT
KO'RSATKICHLARINI TADQIQ QILISH**

Abdullayeva Hilola Ravshanovna

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti, "Meva, rezavor mevalar seleksiyasi va nav o'rganish" bo'lim
boshlig'i, q.x.f.d., professor

hilola.abdullayeva@mail.ru, <https://orcid.org/0009-0009-6341-0908>

Qosimov Axmadjon Abduqodirovich

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari q.x.f.d.,
dotsent

ahmadjonqosimov982@gmail.com, Orcid: 0000-0003-1928-8190

Aytbayeva Difuza Rustamboy qizi

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti, "Meva, rezavor mevalar seleksiyasi va nav o'rganish" bo'lim 3-
kurs tayanch doktoranti

dilfuzaaytbayeva2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyatining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitida
introduksiya qilingan oltinsimon qorag'at (*Ribes aureum* Pursh) o'simligining seleksiya
usullari yordamida yaratilgan yangi navi hamda mavjud nav va namunalarning meva sifat
ko'rsatkichlari, mevalarining o'rtacha og'irligi va bioekologik xususiyatlari tahlil qilingan.
Maqolada mahalliy iqlimga moslashtirilib yaratilgan yangi navning seleksion afzalliklari
hamda hududda mavjud bo'lgan boshqa navlarning bir necha yillar davomidagi sifat
ko'rsatkichlari qiyosiy va statistik tahlillar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xosil, nav, duragay, meva, massa, o'rtacha.

Аннотация: В данной статье анализируются качественные показатели плодов,
средняя масса плодов и биоэкологические особенности нового сорта золотистой
смородины (*Ribes aureum* Pursh), созданного селекционными методами и
интродуцированного в специфических почвенно-климатических условиях
Ташкентской области, а также существующих сортов и образцов. В статье на основе
сравнительного и статистического анализа освещены селекционные преимущества
нового сорта, адаптированного к местному климату, а также показатели качества
других существующих в регионе сортов на протяжении нескольких лет.

Ключевые слова: Урожай, сорт, гибрид, плод, масса, средний

Annotation: This article analyzes the fruit quality indicators, average fruit weight, and
bioecological characteristics of a new variety of golden currant (*Ribes aureum* Pursh)
introduced under the unique soil and climatic conditions of the Tashkent region, as well as
existing varieties and samples created through selection methods. The article highlights the



Date: 27th July-2026

breeding advantages of a new variety adapted to the local climate, as well as the quality indicators of other varieties available in the region over several years, based on comparative and statistical analyses.

Key words: Yield, variety, hybrid, fruit, mass, average.



Tadqiqot materiallari va uslubi. Rezavor mevali o'simliklarning navlarini o'sib rivojlanishi, xususiyatlari I.V.Michurin nomidagi Butunittifoq mevalilik ilmiy-tadqiqot institutining «Programma i metodika sortoizucheniya plodovix i orexoplodnix kultur» 1973 yil uslubi bo'yicha o'rganildi. Mevalarning degustatsiya bahosi iste'molbop yetilgan davrda o'tkazildi. Buning uchun normal rivojlangan, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanmagan mevalar tanlanadi. Baholarning haqqoniy bo'lishi uchun variant mevalari raqamlanib berildi, variant (yoki nav) tarkibi esa degustatsiya varaqalari to'ldirilgandan so'ng e'lon qilinadi. Degustatsiya varaqasi boshqa degustatorlarga xalaqit qilinmagan holda yashirin to'ldiriladi. Degustatsiya ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: mevaning o'lchami, tashqi jozibadorligi, ta'mi, umumiy sifati.

Natijalar va munozara. Tadqiqot natijalarida oltinsimon qorag'at navlari mevalarining sifat ko'rsatkichlarida shuni ko'rishimiz mumkinki, "Plotnomyasaya" nazorat navida bitta eng yirik mevasining massasi 2,0 g tashkil qilib 100 dona mevasining massasi 154,9 g hamda 100 g dagi mevalar soni 68 dona va meaning degustatsion bahosi 4 ball ekanligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat nav va boshqa navlarga nisbatan mevasining yirikligi bo'yicha "Ravshan" (15-50) ajralib chiqdi. Ushbu navning 100 dona mevasining massasi 171,9 g ni tashkil qilib boshqa navlarga nisbatan og'irroq ekanligini aniqlandi. "Ravshan" (15-50) navining 100 g dagi mevalar soni 64 dona va mevasining degustatsion bahosi 4.8 ball ni tashkil qildi. Oltinsimon qorag'atning mevasining yirikligi bo'yicha keyingi o'rinda "Yadgor" (2,7 g) navi xisoblanib, 100 dona mevalar massasi 151,5 g va 100 g dagi mevalar soni 68 dona hamda mevasining degustatsion bahosi 4.8 ball ni tashkil qildi (1-jadvalga qarang).



1-rasm. Oltinsimon qorag'atning "Ravshan" navi

Eng yirik mevasining massasi kamligi bilan "Oydin" 1,6 g ni tashkil qilib boshqa navlar ichida ajralib chiqti. "Oydin" navining 100 dona mevasining massasi 151 g, 100 g dagi mevalar soni 71 dona va mevasining degustatsion bahosi 4.5 ballni tashkil qildi. Oltinsimon qorag'atning "Nargiz" navining eng yirik meva massasi 1,9 g, 100 dona mevasining massasi 171,9 g hamda 100 g dagi mevalar soni 64 dona hamda mevasining

Date: 27th July-2026

degustatsion bahosi 4.5 ballni tashkil qildi. “Do’stlik” navida eng yirikmeva massasi 1,8 g ni ko’rsatgan bo’lsa, 100 dona mevasining massasi 173,6 g ni va 100 g dagi mevalar soni 71 dona va mevasining degustatsion bahosi 4.5 ball ko’rsatkichga ega bo’ldi. “Gulnoza” navining eng yirik meva massasi 1,7 g, 100 dona mevasining massasi 169,3 g hamda 100 g dagi mevalar soni 65 dona va mevasining degustatsion bahosi 4 ballni tashkil qildi

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga ko’ra oltinsimon qorag’at navlari mevalarining sifat ko’rsatkichlarida eng yuqori natija 100 g dagi mevalar sonining ko’pligi bo’yicha “Nargiz” navi (77 dona), 100 dona mevasining massasi og’irligi “Do’stlik” (173,6 g) navida, 1 dona mevasining o’rtacha massasi og’irligi bo’yicha “Ravshan” (15-50) (2.1 g) va eng yirik mevasining o’g’irligi bo’yicha yuqori ko’rsatkich “Ravshan” (15-50) (3.3 g) ekanligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Oltinsimon qorag’at navlari mevalarining sifat
ko’rsatkichlari (2024-2026 y)

No	Navlar	100 g dagi mevalar soni, dona	100 dona mevasining massasi, g	Bitta mevasining o’rtacha massasi, g	Eng yirik mevasining massasi, g	Mevaning degustatsion baxosi	Mevaning shakli	Mevaning rangi
1	Plotnomyasaya (nazorat)	68±5,4	154,9±12,2	1,2	2,0	4	Dumaloq	to’q binafsha
2	Gulnoza	65±5,1	169,3±13,4	1,4	1,7	4	dumaloq	qora
3	Oydin	71±5,6	151,0±11,9	1,5	1,6	4.5	dumaloq	qora
4	Do’stlik	71±5,6	173,6±13,7	1,4	1,8	4.5	dumaloq	qora
5	Yadgor	68±5,4	151,5±12,0	1,5	2,7	4.8	dumaloq	to’q qora
6	Nargiz	77±6,1	158,1±12,5	1,5	1,9	4.5	oval	qora
7	Ravshan (15-50)	64±5,1	171,9±13,6	2,1	3,3	4.8	dumaloq	qora
OK Φ%	2,4	2,2		2,1	OK Φ%			

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga ko’ra oltinsimon qorag’at navlari mevalarining sifat ko’rsatkichlarida eng yuqori natija 100 g dagi mevalar sonining ko’pligi bo’yicha “Nargiz” navi (77 dona), 100 dona mevasining massasi og’irligi “Do’stlik” (173,6 g) navida, 1 dona mevasining o’rtacha massasi og’irligi bo’yicha “Ravshan” (15-50) (2.1 g) va eng yirik mevasining o’g’irligi bo’yicha yuqori ko’rsatkich “Ravshan” (15-50) (3.3 g) ekanligi aniqlandi

Date: 27th July-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Володина Е.В. Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур. / – Орел: изд-во ВНИИСПК, 1999. – С. 351-354.
2. Abdullayev R., “Oltinsimon qorag‘at navlarining istiqbolli navlari va gibridlari” “Mintaqalararo mevacchilik va uzumchilikning xolati, muammolari, istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. 2018 y, 40 b
3. Abdullayev R.M, Abdullayeva X.R., “O‘zbekiston sharoitida introduksiya qilingan oltinsimon qorag‘at navlarini o‘rganish”, Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilikni istiqbolli rivojlantirishda innovatsion agrotexnologiyalarning ahamiyati, ilmiy va ilmiy-texnikanijuman maqolalar to‘plami. 2019 y, 26 sentyabr, 12-14-b
4. Abdullayeva X.R., Qosimov A.A.- Studying the Drought-Resistance of berry plants. TELEMATIQUE ISSN; 1856-4194, Volume 24 Issue 1, 2025, 461-472, Web of science conference journal, <https://www.provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/1947>
5. Abdullayeva X.R., Temirova G.B., Qosimov A.A.- Oltinsimon qorag‘atning o‘sib rivojlanishi va fenologik fazalarining o‘tishiga foydali haroratning ta’siri. “O‘zbekistonda meva-sabzavot ekinlarini zamonaviy usullarda yetishtirish texnologiyalari va mahsulot sifatini hamda xosildorlikni oshirishning muammolari va yechimlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. “O‘zbekiston Agrar fani Xabarnomasi”, Axborot xati, Toshkent 2025-yil, 3-iyun.
6. Abdullayeva X.R., Temirova G.B., Qosimov A.A.- Toshkent viloyati sharoitidagi oltinsimon qorag‘at navlarining fenospektori. “Global iqlim o‘zgarishi sharoitida bog‘dorchilikni rivojlantirishning barqaror innovatsion texnologiyalari” respublika ilmiy-amaliy anjuman. 11-12 sentabr, 2025-yil.
7. Qosimov A.A.- O‘zbekistonda yangi yaratilgan istiqbolli oltinsimon qorag‘at navlarining hosil ko‘rsatkichlari bo‘yicha ilmiy natijalar. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida bog‘dorchilikni rivojlantirishning barqaror innovatsion texnologiyalari” respublika ilmiy-amaliy anjuman. 11-12 sentabr, 2025-yil
8. Abdullayeva X.R., Temirova G.B.- Toshkent viloyati sharoitidagi *Ribes aureum* Pursh. (oltinsimon qorag‘at) navlari ko‘chatlarining o‘sish dinamikasi va oraliq farqlarini tahlil qilish. “Agro ilm-O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnali” 2 son [122] 2026

